



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
«IPAK YO'LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**

«Ipak yo'li» turizm va madaniy  
meros xalqaro universiteti  
birinchi prorektori  
  
J. D. Eltazarov  
2022 y.



**«MA'QULLANDI»**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasini huzuridagi OAK raisi  
  
A. T. Yusupov  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 y.



**08.00.17 – «TURIZM VA MEHMONXONA FAOLIYATI»  
IXTISOSLIGI BO'YICHA MALAKAVIY IMTIHON DASTURI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining  
202\_\_ yil \_\_\_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan

**Samarqand- 2022**

«KELISHILDI»  
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy  
meros xalqaro universiteti  
huzuridagi

DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli  
Ilmiy kengash raisi

A.A.Eshtaev



\_\_\_\_\_ 2022 yil

«TASDIQLAYMAN»  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi OAK raisi  
A.T.Yusupov



\_\_\_\_\_ 2022 yil

08.00.17-“TURIZM VA MEHMONXONA FAOLIYATI” IXTISOSLIGI  
BO‘YICHA YETAKCHI TASHKILOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi O‘zbekiston  
Respublikasi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ekspert kengashining qarori bilan  
tavsiya etilgan

Toshkent 2022

08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha

### YETAKCHI TASHKILOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi
2. Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti
3. Toshkent davlat transport universiteti
4. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
5. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
6. Urganch davlat universiteti
7. Toshkent davlat iqtisodiyot univ'ersiteti
8. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
9. Qarshi davlat universiteti
10. Buxoro davlat universiteti
11. Termiz davlat universiteti
12. Andijon davlat universiteti
13. G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shaxridagi filiali
14. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
15. O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi
16. Farg‘ona politexnika instituti
17. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
18. Tomsk davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi
19. Shimoliy-Kavkaz Federal universiteti, Rossiya Federatsiyasi
20. Oradya universiteti, Ruminiya

ASLGA TOG'RI  
UeB

## **Annotatsiya**

Turizm va mehmonxona sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining istiqbolli tarmog'i bo'lib, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari va daromadlarining, soliq va valyuta tushumlarining, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga investitsiyalar generatsiyasining asosiy manbasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimizga turizm sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish, xorij tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitda qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

### **Tuzuvchilar:**

B.Sh.Safarov - "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti i.f.d., professor.

X.I.Turdibekov - "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti i.f.n., dotsent.

**Taqrizchi:** O.M.Pardaev - SamISI Menejment kafedrasida i.f.d., professor.

Ushbu dastur «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Senatining 25.03.2022-yil 1-son majlisida tasdiqlangan

## KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekistonda turizmga sohasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etayotgani fikrimizning isbotidir. Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Mamlakatni modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo'stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Turizm sohasidagi ilmiy izlanishlarni olib borishda Turizm va mehmonxona faoliyati yo'nalishi bo'yicha fanlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

### Asosiy qism

O'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha ilmiy izlanuvchilarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar, ishlab chiqarishdagi o'rni, tadqiqot usullari va boshqalar.

### Turizm va mehmonxona faoliyati fanlari bo'yicha mavzular

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. «Inson qadri uchun» tamoyiliga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari. «Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishlar. «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sura'atlarini ta'minlash. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi. To'siqsiz turizm infratuzilmasi. Turizm va madaniy meros ob'ektlari. Samarqand «Turizm darvozasi». «Abadiy shahar» tarixiy majmuasi.

Turizmning mohiyati. Turizmning rivojlanish tarixi. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari. Turistlarning oqimi. Turistlar oqimining dinamik o'zgarishi. Turistik xizmatlar va ularning eksporti. Sayohatchi va turistni ajratib turuvchi asosiy farqlar. Qadimgi sayohatlar va ziyoratchilik. Turizm turlari va shakllari. Kirish turizmi. Chiqish turizmi. Xalqaro turizm. Tarixiy obidalar turizmi. Arxeologik turizm. Rekreatsion turizm. Sog'lomlashtiruvchi dam olish. Diniy turizm. Ekoturizm. Gastronomiya turizmi. Harakatlanish usuli. Aviatransport. Dengiz transporti. Temir yo'l transporti. Aktiv va passiv turizm turlarining xususiyatlari.

Turizm resurslari tushunchasi. Turizm resurslarining guruhlanishi. Tabiiy turistik resurslar. Madaniy–tarixiy resurslar. Turistik axborot resurslari. Ijtimoiy–iqtisodiy turistik resurslar. O‘zbekistonning tarixiy va arxitektura yodgorliklariga ega bo‘lgan shaharlari. O‘zbekistonning UNESCO ro‘yhatidagi tarixiy shaharlari.

Turistik xizmatlar. Turistik mahsulotlar. Tur. Tur paket. Xizmat ko‘rsatish klasslari.

Mehmonxona industriyasi. Turizm sohasida joylashtirish vositalari va xizmatlari. Mehmonxonalarining turlari va tasnifi. Mehmonxona tiplari. Yevropa va Osiyo mamlakatlari tasniflash tizimlari.

Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlarining usullari. Umumiy ovqatlanish korxonalari tasnifi va turlari. Xizmat ko‘rsatish. turlari. Turizm sohasida transport xizmatlari. Transportda tashish xizmatlarining tasniflanishi. Turizm sohasida transport vositalari. Transport ta‘minoti. Transport kompaniyalari. Turizm sohasida transport xizmatlari turlari. Gid-ekskursiyachi xizmatlarining mohiyati va tasnifi. Ekskursiya metodikalari. Gid-ekskursiyachi xizmati. Gid-ekskursiyachining vazifalari. Gid-ekskursiyachilik kasbining shakllanishi. Ekskursiya xizmatlarida gid-ekskursiyachi faoliyatini baholash metodikalari.

Turistik marshrutlar. Turizm marshrutlarining turlari. Turizm marshrutlarini tayyorlash usullari va tasnifi. Turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari. Turistik marshrutini ishlab chiqish bosqichlari. Turistik sayohatining texnologik xaritasi. «Turistik safar» xizmati xavfsizligi. Turistik safarining yo‘l pasporti. Package-tur. Eksklyuziv-turlar.

Turizm industriyasi. Turizm infratuzilmasi tushunchasining mohiyati. Turoperatorlar va turagentlar faoliyati. Turistlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish. Turistlarni sayohat joylari bilan tanishtirish. Turizm inshootlari. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari. Richard Batlerning Turistik destinatsiyalar hayotiy davri nazariyasi.

Ekologik turizmning mohiyati. Ekologik turizmning maqsadi va vazifalari. Xorijiy ekoturizm bozori. Ekologik turizmning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni. Ekologik turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari. Tabiiy boyliklar. Alohida qo‘riqlanuvchi tabiiy hududlarining tavsifi. O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari.

Gastronomiya turizmini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Gastronomiya turizmi. Gastronomiya turizmining turlari. O‘zbekistonda gastronomiya turizmini shakllantirishda milliy taomlar turlari.

Qishloq turizmini rivojlantirishning xalqaro modellari. Xalqaro modellarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash. Qishloq turizmini rivojlantirish bosqichlari.

Turizm menejmentining samaradorligi. Turizmda zamonaviy menejer faoliyati. Turizm xizmatlarida marketing tadqiqotining mazmuni. Turizm xizmatlar bozori. Turizm marketing tadqiqotlarining maqsadi. Turizm xizmatlarida maqsadli bozorni aniqlashdagi marketing tadqiqotlari. O‘zbekistonda turizm majmuasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi. Turizm sohasi boshqaruvining tarkibi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyati. Sayohat-ekskursiya byurolari. Davlatning turizm

sohasidagi siyosati. Davlatning turizm siyosatini amalga oshirish mexanizmi. "Turizm haqida"gi qonunning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati. Oxirgi yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar mohiyati. Turizm strategiyasi. Turizm taktikasi. Turizm faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga oid farmon va qarorlari xronologiyasi va ulardan foydalanish tartiblari.

Xalqaro turizm. Xalqaro tashriflar. Turistlar oqimini ta'minlab beruvchi asosiy mamlakatlar. Xalqaro turizm bozori. Ichki turizm bozori. Xalqaro turizm rivojlanishining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi.

Turistik faoliyatni litsenziyalashtirish. Litsenziya. Turistik korxonalariga litsenziya olish uchun davlat tomonidan o'rnatilgan talablar. Turizm sertifikatlashtirishning turlari. Asosiy standartlar. Turizm xavfsizlik. Turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari. Xalqaro turizm turistlarining hayoti xavfsizligini ta'minlashning xalqaro huquqiy va me'yoriy hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi qonun va qarorlarida turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash. Turizmga oid rasmiyatchilik. Turizm rasmiyatchiligiga oid hujjatlar. Bojxonaga oid turizm rasmiyatchiliklar. Tibbiy rasmiyatchiliklar.

Mehmonlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va joylashtirish vaqtida mehmonxonalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Xalqaro va davlat standartlari bo'yicha iste'molchiga xizmat ko'rsatish.

Xalqaro mehmonxonalar qoidalari. Mehmonlarga xizmat ko'rsatish xususiyatlari. Sifatli xizmatlar ko'rsatishda globallashtirish jarayonining ta'siri. Atamalar va ta'riflar. Mehmonxonaning asosiy va qo'shimcha xizmatlari. Mehmonxonaning asosiy xizmatlari. Mehmonxonalarning qo'shimcha xizmatlari.

Mehmonxona va turoperator o'rtasidagi shartnoma, uni tayyorlash qoidalari, tasdiqlash va imzolash tartibi. Mehmonxona va sayyohlik agentligi o'rtasidagi shartnoma, uni tayyorlash qoidalari, tasdiqlash va imzolash tartibi. Talab va ehtiyojning mavsumiyliigi. Mehmonxona xizmatlari va sayohat (tashrif) maqsadlarining o'zaro bog'liqligi. Mehmonxona xizmatlarini sotish hajmining qator omillarga bog'liqligi. Mehmonxona faoliyatida innovatsiyalarni qo'llash xususiyatlari. Xalqaro mehmonxonalar faoliyati. Internet orqali biznes aloqalari. Telekonferentsiyalar, munozarali guruhlar, chat orqali muloqot etikasi. Mahalliy kompyuter tarmog'ida foydalanuvchilarning axloq qoidalari.

Xalqaro turizmning paydo bo'lish tarixi va rivojlanishi. "Buyuk Ipak Yo'li" va unda xalqaro turizmni rivojlantirishning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligining faoliyati. Hozirgi davrda mintaqaviy turizmning rivojlanish xususiyatlari. Ichki va xalqaro turizmning rivojlanish tamoyillari va maqsadlari. Turizm makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va iqtisodiy imkoniyatlar.

Turizm va mehmonxona faoliyati iqtisodiyotining statistik ma'lumotlari. Turizm iqtisodiyotining va mehmonxona xizmatlarining xususiyatlari. Turistlarni O'zbekistonga jalb qilish muammolari va istiqbollari. Turizmni rivojlantirishda hukumat va xususiy sektorlarning roli. Mamlakatni modernizatsiya qilishda va

mehmonxona xizmatlari va turistik faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turistik biznesni amalga oshirishni tashkil qiladigan asoslar: sarmoya, texnologiya, kadrlar va turistik resurslar. Turistik mahsulotlar va mehmonxona xizmatlari to'g'risida tushuncha.

Turistik mahsulotlarning yaratilish bosqichlari. Turistik mahsulotning baholanishi. Turmahsulotga va mehmonxona xizmatlariga narx belgilashga ta'sir etuvchi omillar. Turizm narx siyosatiga ta'sir etuvchi atrof-muhit omillari. Turistik mahsulot tannarxini hisoblash qoidalari. Turizm sohasida talab va taklifning o'ziga xos jihatlari. Talab va taklifga ta'sir etuvchi omillar. Turistik biznesda raqobatning o'rni va shakllanishi. Turistik biznesda raqobat qoidalarining amal qilishi. Turistik biznesda bozor muvozanati.

Xizmat ko'rsatish sohasida xarajatlar va uning tarkibi. Xarajatlar turlari va shakllari. Xizmatlar sohasida foyda. Foyda normasi.

Matematik modellashtirish va matematik statistikaning fundamental masalalari va metodik ta'minoti. Kompyuter va matematik modellashtirish asoslari va uning o'ziga xosligi. Hisoblash eksperimentlarini shakllantirish va tashkil etish usullari. Matematik modellashtirish va hisoblashda loyihalash usullari. Matematik modellashtirishning asosiy prinsiplari va klassifikatsiyasi. Kompyuter diagnostikasi va imitatsiyasining nazariy va amaliy asoslari. Ehtimollar nazariyasi. Statistika tanlov usuli. Matematik modellashtirishda statistik gipotezalarni tekshirish nazariyasi. Fisher kriteriyasi.



## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar

1. Management and Marketing of tourism. Eshtaev A.A., Abdurakhmonov K.Kh. - Published by UCSI Publishing house, No.1 Jalan Menara Gading, UCSI Heights, 56000 Kuala Lumpur, Malaysia 2013. P.264
2. Turizm:nazariya va amaliyot. Darslik. Boltabaev M.R., Safarov B.Sh., Tuxliev I.S., Abduxamidov S.-Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018.-400 b.
3. Mehmonxona xo'jaligida innovatsiya. O'quv qo'llanma. Norchaev A., Xalimova F. – T.: TDIU, "Iqtisodiyot" 2019.- 179 b.
4. Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish. O'quv qo'llanma. Norchaev A., Umirova D. – T.:TDIU, "Iqtisodiyot" 2019.- 192 b.
5. Norchaev A.Turoperator menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2019.- 256 b.
6. Turizmda transport xizmatlari O'quv qo'llanma Norchaev A., Umirova D.– T.:TDIU, "Iqtisodiyot" 2020.-256 b.
7. Mintaqaviy turizm. O'quv qo'llanma. Norchaev A., Nurfayzieva M. - T.: TDIU, "Iqtisodiyot" 2020.- 224 b.
8. Turopereyting O'quv qo'llanma. Safarov B.Sh., Raximov Z., Xayitboev R., Ibadullaev N. - Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018 - 300 b.
9. Alieva M.T. Turizm mahsulotlari marketingi. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2020.- 154 b.
10. Alieva M.T. Turizm bozori menejmenti. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2020.- 256 b.
11. Alieva M.T. Turizmda atrof-muhitni boshqarish. Darslik-T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.- 284 b.
12. O'zbekiston turistik-rekratsion salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborot tizimini shakllantirishning metodologik asoslari. Monografiya. Eshtaev A.A., To'xliev I. – Samarqand, "Turon Nashr", 2021. - 272 b.
13. Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifatini boshqarish. O'quv qo'llanma. Turdibekov X.I., Turaev B.X., Ibodov K.M. va boshqalar. T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2020.-368 b.

### Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni. 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son. - <https://www.lex.uz/docs/4428097>
16. «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016-yil 2-dekabr,PF-4861-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son - <https://lex.uz/docs/5841063>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi «Turizm, madaniy meros va sport sohaslarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-75-son Farmoni - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 06/22/75/0150-son - <https://lex.uz/docs/5868604>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmoni - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.04.2021 y., 06/21/6202/0342-son- <https://lex.uz/docs/4474527>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 fevraldagi "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-135-son Qarori - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 07/22/135/0148-son - <https://lex.uz/docs/5868619>
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktabrdagi "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohaslarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5270-son Qarori - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021 y., 07/21/5270/1006-son - <https://lex.uz/docs/5701949>
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4095-son Qarori - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019 y., 07/19/4095/2426-son - <https://lex.uz/docs/4141452>
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son Qarori - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2020 y., 09/20/433/1140-son - <https://lex.uz/docs/4930291>
24. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
25. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
26. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

28. O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. Eshtaev A.A., Raxmonov I. -Samarqand: SamDU nashri, 2019-yil.-170 b.

29. Xalqaro turizm. Darslik.- Norchaev A.,Pardaev A. – T.: TDIU, 2010-264.

30. Ekoturizm. Darslik. Norchaev A., Xamidov O. T.: TDIU, 2011 139 b.

31. Marketing kommunikatsiyalari. Turizm yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Turdibekov X.I., Turaev B.X., Ibodov K.M., Ergashxodjaeva Sh.Dj. - T.: "Transport", 2021. – 319 b.

32. Restoran menejmenti. O'quv qo'llanma. Turdibekov X.I., Tashmatov Sh.U. va boshqalar. Samarqand, "Turon-nashr", 2020.-332 b.

**08.00.17 –Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi buyicha  
Baholash mezonlari**

**Bilim darajasini baholash 0-100 ballik asosida baholanadi.**

Ball	Baxo	Talabgorlarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, Tasavvurga ega bo'lish.
56-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, Tasavvurga ega bo'lish.
0-55	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Maksimal ball 100	Bilim, ko'nikma, fikrlash darajasi
90-100	Fanning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini, o'tilgan materiallarni chuqur tushunadi, savolga aniq va to'liq javob beradi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlay oladi, xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri va o'ziga xos usullarda hal qila oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi.
86-89	materiallarni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga baho bera oladi, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha oladi.
80-85	Materiallarni va uning mohiyatini ancha chuqur tushunadi, savollarga to'liq javob beradi. Lekin umumiy xarakterdagi ayrim xatolarga yo'l qo'yadi, fak'larga to'g'ri baho beradi. mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslash qobiliyati bor, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, muammoni hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni umuman to'g'ri hal qila oladi, lekin xulosalarida noaniqliklar uchraydi
71-80	Materialni va uning mohiyatini juda yaxshi tushunadi, savollarga umuman to'liq javob beradi, lekin ayrim noqulayliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho beradi, mustaqil fikrlay oladi, lekin ba'zi xulosalarni to'liq asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondoshadi.
60-70	Savollarga nisbatan javob beradi, lekin ba'zi umumiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yadi, faktlarga baho berishda biroz qiynaladi, umuman mustaqil fikrlay oladi, lekin ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ancha ijodiy yondoshadi, lekin ayrim xarakterdagi xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi.

56-60	Materialni va uning mohiyatini umuman tushunadi, savollarga ancha to'liq va aniq javob beradi, lekin ayrim xatolarga yo'l qo'yadi, ayrim faktlarni shunchaki yodlab olganligi sezilib turadi, ayrim xulosalarni to'g'ri asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarda noaniqliklar uchraydi.
50-55	Savollarga aniq va to'liq javob berishga harakat qiladi, lekin ayrim jiddiy xatolarga yo'l qo'yadi, qator faktlarni shunchaki yodlaganligi sezilib turadi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni umuman hal qiladi, ba'zi jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadi.
40-50	Materialni umuman biladi. Aniq javob berishga harakat qiladi, lekin javobda jiddiy kamchiliklar bor, mulohaza yuritishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Faktlarni asosan shunchaki yodlaganligi seziladi. Ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi va masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi.
30-40	Talaba o'tilgan materialni qisman biladi, javobda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, faktlarni baholab bera olmaydi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda qiynaladi yoki hal qila olmaydi.
20-30	Material haqida qisman, uzuq - yuluq tasavvurga ega, materialni yaxshi o'zlashtirilmagan. Bilgan narsasini ham faqat yodlaganligi sezilib turadi, faktlarga baho bera olmaydi, amaliy topshiriqlarni deyarli hal qila olmaydi.
10-20	Material haqida juda kam tasavvurga ega, ayrim faktlarni uzuq-yuluq bilishi mumkin, amaliy topshiriqlarni hal qila olmaydi. Jiddiy qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi.
0-10	Material bo'yicha deyarli hech narsa bilmaydi, juda kam tasavvurga ega yoki umuman tasavvurga ega emas.